

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KEÑESINIŇ
BIYLIĞI**

2023 - yil 8 - may

96-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasi, Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining 2023-yil 19-apreldagi (*№04-04/15-144, 19.04.2023-y.*) 26-son bayoni va Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 25-apreldagi CM/12-02/1313-son xulosasiga muvofiq, joriy yilning 24-26-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash maqsadida:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodikov) mazkur xalqaro sanoat ko'rgazmasi bilan bog'liq sarflangan xarajatlarni qoplash uchun 150 939 800,00 (*bir yuz ellik million to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz ming sakkiz yuz*) so'm pul mablag'larini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi mablag'lari hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov) ajratilgan mablag'larni qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda va asoslarda, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (B.Utambetov)dan ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan tartibda va asoslarda, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish so'ralsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Oteuliev zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi Raisi



F. Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 8 maydagi
96-13-0-F/23-son farmoyishiga
1-ilova

**Joriy yilning 24-26-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "INNOPROM.
Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi bilan bog'liq xarajatlar
SMETASI**

№	Xarajatlar	Miqdori	Me'yor (so'm)	Umumiy summasi (so'm)
1.	Tushlik va kechki ovqat "Nobile" restoranida (24-aprel kuni)	*	97 704 600,00	97 704 600,00
2.	Tushlik va kechki ovqat "Nobile" restoranida (25-aprel kuni)	*	29 635 200,00	29 635 200,00
3.	Dutor futlyari bilan to'plami	1	2 800 000,00	2 800 000,00
4.	Qobiz futlyari bilan to'plami	13	600 000,00	7 800 000,00
5.	Qoraqalpoq milliy chaponi	1	750 000,00	750 000,00
6.	Qoraqalpoq milliy chaponi	3	650 000,00	1 950 000,00
7.	Milliy libos (milliy kardigan)	2	600 000,00	1 200 000,00
8.	Qoraqalpoq milliy chaponi	1	4 600 000,00	4 600 000,00
9.	Transport xarajatlari	*	4 500 000,00	4 500 000,00
Jami:				150 939 800,00